E'lon: Kimyo sohasida magistratura uchun to'liq grant!

// 23 September 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/e-lon-kimyo-sohasida-magistratura-uchun-to-liq-grant



Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va "O'zkimyosanoat" AJ magistratura (1 ta o'rin) yo'nalishida barcha xarajatlar qoplangan holda Janubiy Koreyaning yetakchi universitetlaridan birida tahsil olish uchun tanlov e'lon qiladi!

- Barcha xarajatlar qoplanadi (shartnoma, turar joy, aviachipta va stipendiya);
- Ilg'or ilmiy laboratoriyalarda tadqiqot olib borish imkoniyati;
- Xalqaro darajadagi ilmiy tajriba va innovatsion bilimlar;
- Tashkilot tomonidan kafolatlangan ish o'rni.

O‘qishni muvaffaqiyatli tamomlagan ishtirokchilar yangi tashkil etilayotgan Koreya-O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti – Kimyo texnologiya innovatsiya markazida faoliyatlarini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- **Hujjatlarni onlayn topshirish uchun:**

  https://apply.ust.ac.kr/common/setlocale

- **Hujjatlarni qabul qilish muddati:**

  2025-yil 22-sentabrdan 16-oktabrga qadar

Telefon: (+998) 77 497-11-20
E-mail: empark@krict.re.kr u.tillabaeva@uks.uz

Bu – kelajagingiz uchun ajoyib imkoniyat!